



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAHALLA VA OILANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VAZIRLIGI
“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“PANDEMIYA SHAROITIDA OILADA TINCHLIK VA TOTUVLIKNI
SAQLASHNING DOLZARB VAZIFALARI VA MUAMMOLARI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI TO‘PLAMI
(10-may 2021-yil)

“АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ И ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖАНИЯ МИРА И
СОГЛАСИЯ В СЕМЬЕ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ”
СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
(10 мая 2021 года)

“CURRENT TASKS AND PROBLEMS OF MAINTAINING PEACE AND CONSENT
IN THE FAMILY IN THE PANDEMIA”
COLLECTION OF MATERIALS OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTIC CONFERENCE
(May 10, 2021)



O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti davlat korxonasi
Toshkent – 2021

UO'K: 173.7:616-036.21(575.1)(082)

KBK 51.9

60.56

P 19

Tahrir hay'ati:

N. Egamberdiyeva, A. Musurmonova, X. Abduramanov, G. Tuychiyeva, R. Ismaylova,
X. Saydivaliyeva, G. Tleuova, B. Mavlonov

P 19 **“Pandemiya sharoitida oilada tinchlik va totuvlikni saqlashning dolzarb vazifalari va muammolari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent. 2021. – 288 bet.

Ushbu to'plamga konferensiyada muhokoma qilingan pandemiya mavzusi bilan aloqador oila va oila institutining mamlakatimizga xos barcha iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, psixologik muammolariga bag'ishlangan maqolalar kiritilgan.

Mazkur konferensiya materiallaridan mahalla va oila bilan ishlovchi mutaxassislar, NNT xodimlari, ilmiy izlanuvchilar hamda keng ilmiy jamoatchilik vakillari foydalanishlari mumkin.

UO'K: 173.7:616-036.21(575.1)(082)

KBK 51.9

60.56



M. XOLIQOVA,

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti Mahalla institutini mustahkamlash bo'limi boshlig'i, falsafa doktori, dotsent

**OILAVIY NIZOLARNING SAMARALI YECHIMI VA PREVENSIYASIGA DOIR
ZAMONAVIY KOMPETENSIYALAR**
(mediativ aspekt)

Annotatsiya: Ushbu maqola mahalla va oila tizimi uchun o'ta dolzarb bo'lgan oilaviy nizolarning samarali yechimiga oid zamonaviy kompetensiyalar va metodikalarning tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: mediatsiya, nizo, kompetensiya, oila, jarayon.

M. ХОЛИКОВА,

Заведующий отделом укрепления махаллинского института, научно-исследовательского института “Махалля и семья” Доктор философских наук, доцент

**СОВРЕМЕННЫЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО РЕШЕНИЯ И
ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ СПОРОВ**
(медиативный аспект)

Аннотация: Данная статья посвящена анализу современных компетенций и методов эффективного разрешения семейных споров, которые очень важны для системы махалли и семьи.

Ключевые слова: медиация, конфликт, компетентность, семья, процесс.

M. XOLIQOVA,

Head of the Department of the Mahalla Institute, Research Institute “Mahalla and Family”
Doctor of Philosophy, Associate Professor

**MODERN COMPETENCES FOR EFFECTIVE RESOLUTION AND PREVENTION
OF FAMILY DISPUTES**
(mediation aspect)

Annotation: This article is devoted to the analysis of modern competences and methods of effective resolution of family disputes, which are very important for the mahalla and family system.

Key words: mediation, conflict, competence, family, process.

Yo'ldan chiqsang chiq, eldan chiqma.

Tinchlik bilan el ko'karar,

Yomg'ir bilan – yer.

Xalq maqollari

Keyingi yillarda oila sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar oilalarning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan bo'lgan oilaviy nizolarni o'z vaqtida bartaraf etish mahalla va oila tizimi mutaxassislarining nizolar profilaktikasi, nizolar bilan ishlashning ilg'or usullari hamda oilaviy hayot mustahkamligi uchun zarur bo'lgan mediatsiya sohasida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganiga bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5938-son-



li farmonida “Mamlakatda “obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan tizimni samarali joriy etish” bo’yicha “Yo’l xaritasi” qabul qilingan bo’lib, unda oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, **sudgacha oilaviy nizolarni oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va tizim amaliyotiga tatbiq etish masalalari** belgilangan [1].

Huquqiy, fuqarolik, mehnat, biznes, oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudgacha hal etish mexanizmi sifatida mediatsiya, ya’ni maxsus vositachi — mediator ishtirokida nizolashuvchi tomonlarni yarashtirish usullari rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasida uzoq yillardan beri qo’llanib kelinadi.

Bugungi kunda mediatsiya milliy qonunchilikdan ham munosib o’rin oldi. 2018-yil qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining “**Mediatsiya to’g’risida**”gi qonuni 2019-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi [2].

XXI asr ko’nikmalari yo’lida hamkorlik tashkiloti (**Partnership for 21st Century Skills**) tomonidan XXI asrda insoniyatning barcha sohada muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo’lgan ko’nikmalar qatorida quyidagi ijtimoiy kompetensiyalar sanab o’tilgan.

- *liderlik (peshqadamlik) ko’nikmalari;*
- *shaxslararo va muammolarni hal qilish ko’nikmalari yordamida boshqalarga ta’sir ko’rsatish va ularni maqsad sari yo’naltirish;*
- *boshqalar bilan tegishli va mahsuldor tarzda ishlash;*
- *guruhlarning jamoaviy aqliy qobiliyatidan zarur hollarda foydalanish;*
- *yangilik kiritish va ish sifatini oshirish maqsadida madaniyatlar orasidagi tafovutni bartaraf etish va turlicha nuqtayi nazarlardan foydalanish;*
- *tolerantlik.*

Ushbu muhim kompetensiyalar qatoridan nizolarni hal qilish, nizoni boshqarish kabilar ham o’rin olgan [10].

XXI asrda uzluksiz shaxsiy va kasbiy kamolot hamda o’zgarib, rivojlanib borayotgan dunyoning talablariga moslashishning samarali shakllaridan biri bu shaxslararo nizolarni samarali boshqarish ko’nikmalaridir. Vendi Suzuki, Liza Parkinson, Xristof Besemer, Rodjer Fisher, Jon Uinsleyd, Anita fon Xertel, Rojer Bush, Uilyam Yuri, Abraxam Maslou, Nadejda Grishina, Jon Foljer, Tatyana Dronzina tadqiqotlarida shaxs kompetensiyalari, shaxsning uyg’un rivojlanishining omillari, ehtiyojlar va ularni ro’yobga chiqarish, inqirozlarni samarali bartaraf etish orqali shaxsiy rivojlanish strategiyasi, nizolar bilan samarali ishlash, konflikt-menejment, mediativ texnikalar, oila mediatsiyasi, oilaviy nizolar tabiati, nizolar bilan ishlashda zarur kompetensiyalarni shakllantirish muammolari tadqiq qilingan [3, 4, 5, 6, 7].

Nizo (ixtilof, nifoq, mojaro, ziddiyat, qarama-qarshilik, kolliziya, konflikt) zamonaviy dunyoning ajralmas elementi hisoblanadi. Nizolar ijtimoiy hayotning etnik, irqiy, milliy, oilaviy, mehnat, tijorat, biznes, g’oyaviy-mafkuraviy munosabatlarga oid masalalarida yuzaga kelishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatlarda nizo jamiyat hayotining uzviy ko’rinishidir. Masalan, Germaniyada faoliyat olib boruvchi yirik kompaniyalarda nizo predmeti bilan ishlaydigan maxsus bo’limlar tashkil etilgan. Uning vazifasi ijtimoiy-mehnat nizolarini o’z vaqtida, boshlang’ich fazasida bartaraf etishdan iborat. Tomonlarning yuristlari yuzaga kelgan konfliktni o’zaro muzokara yo’li bilan hal qilish choralari ko’radi (**collaborative law, procedure collaborative**).

Har qanday nizoli vaziyatning markazida insonning boshqa insonlar bilan munosabatlarda huquqqa ega ekanligi g’oyasi yotadi. Ushbu g’oya shaxsga xos xususiyatlar, mavqe, pozitsiyalar mavjudligiga ko’ra, “adolatli” munosabatga loyqlik masalasiga borib taqaladi. Nizo nafaqat manfaatlar va ziddiyatlar to’qnashuvi, balki “muayyan huquqlarga egalik”da (**entitlement**) raqobatning namoyon bo’lishidir.

Sanoat inqilobi va yuksak sur’atda axborot almashinuvi bilan bog’liq zamonaviy dunyoda so’dir bo’layotgan jarayonlar yuzaga keladigan turli shakldagi nizolarni hal qilishda yangi progressiv yondashuvlarni talab qiladi.



Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, shaxslararo munosabatlarning rivojiga xizmat qiladigan va ijtimoiy tizimning barcha shakllarida – oila, iqtisodiyot, mehnat bozori, davlat ma'muriy amaliyotida keng qo'llaniladigan, hayotdagi turli xil nizolarni tinchlik, muzokara va murosa yo'li bilan hal etishning ilg'or va muqobil usuli mediatsiyadir.

Mediatsiya – (lotincha “**mediatio**”, inglizcha “**mediation**” – vositachilik) tomonlar o'rtasidagi nizo, ziddiyat, ixtilof, kelishmovchilik, mojaro (konflikt)ni tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida, uchinchi, betaraf (neytral), xolis shaxs, ya'ni mediator (vositachi) ko'magida hal qilish usulidir. **Mediatorlar xulqining Yevropa kodeksida** “*Mediatsiya – bu ikki yoki undan ortiq tomon ushbu tomonlarga nizoni sud qarorisiz kelishuv tartibida hal etishga yordam berish uchun uchinchi tomon – vositachini jalb qilishga rozilik berish orqali o'tadigan istalgan jarayon*”, deya ta'rif berilgan [9].

Nizo – (kolliziya, ixtilof, nifoq, mojaro, konflikt) odamlar, g'oyalar yoki manfaatlar o'rtasidagi munosabatlarda disgarmoniya (uyg'unlikning, muvozanatning buzilishi), kelishmovchilik holati, qarama-qarshiliklar to'qnashuvi [5].

Nizo maqsad-muddaosi, fikrlari bir-biriga mos tushmaydigan tomonlar (odamlar, guruhlar) o'rtasidagi munosabat, manfaatlar to'qnashuvi, muammolarni hal etishning eng radikal (keskin) usuli bo'lib, ushbu jarayonda har bir tomon faqat o'zining manfaatini ko'zlaydi.

Nizo shaxslar yoki ijtimoiy kuchlar to'qnashuvi, kamida ikki tomonning manfaatlari, qarashlari, pozitsiyalari qarama-qarshiligi ko'rinishida yuz beradigan o'zaro ta'sir jarayonidir.

Nizo quyidagi ko'rinishlarda yuz berishi mumkin:

- ✓ muayyan masala bo'yicha kelishuvning yo'qligi;
- ✓ turli jamoalar manfaatlarining qarama-qarshiligi;
- ✓ axloqiy va huquqiy normalar o'rtasidagi ziddiyatlar;
- ✓ madaniy, etnik mojarolar;
- ✓ biror masalada raqobat.

Mediator (vositachi) xolis, betaraf shaxs bo'lib, tomonlarga yuzaga kelgan nizolarning o'zaro manfaatli yechimini topishga ko'maklashadi.

Mediator ixtiyoriylik va iroda erkinligiga asoslangan mediatsiya jarayonida tomonlarga o'rtadagi nizoning yechimini izlash bo'yicha mas'uliyatni zimmasiga olish va muloqot qilish uchun imkon yaratadi [9].

Bu jarayonda nizolashayotgan tomonlar uchun zarur shart-sharoitlar ta'minlangan holatda o'zaro munosabatlarni (oilaviy, kasbiy, ijtimoiy) saqlab qolishga va hamkorlik qilishga imkoniyat yaratiladi.

Mediator ikki yoki undan ortiq tomonlar yoki guruhlar bilan ishlaydi. Mediator advokat emas, u tomonlardan birining huquqlari va manfaatlarini himoya qilmaydi.

Mediatsiyaning maqsadi nizoni bartaraf etish usuli bo'yicha tomonlarning o'ziga xos kelishuviga erishishdan iborat. Mediatsiya – kelajakka yo'naltirilgan jarayon.

Mediatsiya deyarli har qanday nizolarda qo'llanilishi mumkin. (Mediatsiya o'tkazishning imkoniyati yo'qligini bildiruvchi nomediabellik holatlari bundan mustasno. Masalan, sud pretseidentining mavjudligi, jismoniy zo'rlik, nizoning ko'psubyekтли ekanligi, uchinchi shaxs manfaatlarining ifodasi, ruhiy kasalliklar va h.).

Mediatsiya jarayoni quyidagi sohalarga tatbiq etilishi mumkin:

- ✓ moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar;
- ✓ fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- ✓ ijtimoiy-oilaviy munosabatlar;
- ✓ biznes-tadbirkorlik munosabatlari;
- ✓ ta'lim munosabatlari;
- ✓ korporativ-ijtimoiy mehnat munosabatlari.

Uning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra ular muhokama qilmoqchi bo'lgan masalalarni aniqlab olishlari mumkin.

Mediatsiya – juda moslashuvchan jarayon, uning yo'nalishi har doim tomonlarning shaxsiy ehtiyojlariga muvofiq o'zgarishi mumkin.



Nizolarni hal qilishda mediatsiyani amaliyotga tatbiq etilishi sud tizimi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ish hajmining yuqori darajada ko'pligi barcha davlatlar sudlari uchun umumiy muammo hisoblanadi.

Xususan, **Hindistonda** har bir sudyaga qariyb 2100 ta ish to'g'ri keladi. Ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan ishlarning umumiy soni 30 milliondan ortiq. Ko'p odamlar 20 yildan beri da'volarni kutishmoqda. Bu ishlarning Hindiston sudlari tomonidan ko'rib chiqilishi 2400-yilga borib, tugallanishi mumkin.

Mediatsiya uzoq tarixga ega ijtimoiy institut bo'lib, **Assiriya (shumerlar davlati), Finikiya, Mesopotamiya, Vavilon, Misr, Xitoy, Qadimgi Yunoniston va Rimda** turli kelishmovchiliklarga yechim topishda mediatsiyani qo'llash amaliyotidan keng foydalanilgan.

Qadimgi Rimda va Vizantiya imperiyasida miloddan avvalgi VIII asrdan beri mavjud bo'lgan va ko'plab boshqa davlatlar huquqiy tizimlarining modeli bo'lib xizmat qilgan **Rim huquqida** (Corpus iuris civilis) **Yustinian** kodeksidan boshlab bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik usuli tan olingan.

Qadimgi Yunonistonda vositachilar **proxenetes** deb atalgan. Qadimgi Rimda ular turlicha nomlangan: **internuncius, medium, intercessor, philanthropus, interpolator, mediator, conciliator, interlocutor, interpres.**

Tarixdan ma'lumki, imperator Napoleon Bonapart Shveysariya, Germaniya va Fransiya o'rtasida xalqaro mediatsiyaning vositachisi sifatida ishtirok etgan va Shveysariyaga mustaqilligini va avvalgi davlat tuzilishini saqlab qolishga imkon beruvchi "**Mediatsiya Akti**"ni imzolagan[7].

Shunday qilib, mediatsiya jarayonining nizolarni hal qilishning boshqa usullaridan bir qator afzalliklari, xususan, shaxslararo munosabatlarini saqlab qolish, vaqt va moliyaviy resurslarni tejash, joy omili, tanlash erkinligi, yakuniy qarorni mustaqil qabul qilish, jarayonning maxfiyligi uni mahalla va oila tizimida ijtimoiy nizolar, jumladan, oilaviy nizolarning prevensiyasi va samarali hal qilishda bir qator imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-482-son. 2018-yil 3-iyul.

3. Христоф Бесемер. Медиация. Посредничество в конфликтах. Калуга: Духовное познание, 2004. – 179 с.

4. Буш Р., Фолджер Дж. Что может медиация. Трансформативный подход к конфликту. Киев: Издатель Захаренко В.А., 2007. – 264 с.

5. Гришина Н. В. Психология конфликта. 2-е изд. — СПб.: Питер, 2008. — 544 с.

6. Хертель, Анита фон. Профессиональное разрешение конфликтов: Медиативная компетенция в Вашей жизни. — СПб.: Издательство Вернера Регена, 2007. – 272 с.

7. Roger Fisher, William Ury. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. 1981, 1988. Фишер Р., Юри У. Путь к согласию, или переговоры без поражения. — Перевод с английского: А. Горелова; Предисловие: В. А. Кременюк. — М., 1992. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. — 10.02.2012.

8. Сузуки В. Странная девочка, которая влюбилась в мозг (2-э изд.) — М.: Alpina Publisher, 2017, – 302 p.

9. https://www.norma.uz/raznoe/evropeyskiy_kodeks_povedeniya_mediatorov_izvlecheniya

10. www.21stcenturyskills.org.



SH. RASHIDOVA. Влияние карантинных мер на внутрисемейные взаимоотношения в узбекской семье.....	159
D. GAFUROVA. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning oʻrni.....	162
O. MUHAMMADIYEVA, A. ZAIROV. Pandemiya sharoitida oilada totuvlikni taʼminlashning milliy-anʼanaviy usullari	165
D. QODIROV. Abu Homid Gʻazzoliy nikoh, farzand tarbiyasi, oilada baxtni taʼminlovchi omillar toʻgʻrisida.....	169
M. KENJAYEVA. Maʼrifatli ayol – yurt koʻzgusi	173
N. SALAYEVA, SH. XUDAYBERGANOVA. Zamonaviy namunali oila modelining asosiy mezonlari	176
B. ORZIQULOV. Oʻzbek oilasida otaning oʻrni: tarixiy anʼanalar va etnik xususiyatlar	180
G. ROZIQOVA. Oila — mahalla — taʼlim muassasasi hamkorligi	183
SH. TESHABOYEVA. Xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda ishtiroki darajasiga oid mulohazalar	186
T. QUZIYEVA. Karantin oilaviy munosabatlarga qanday taʼsir qildi?.....	190
R. YULDASHEVA. Oila – taʼlim-tarbiya oʻchogʻi	194
A.KARIMOVA, M.XAKIMOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilaviy anʼanalar asosida tarbiyalash.....	197
F. UMAROVA. Oila va taʼlim muassasasi hamkorligida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ijtimoiy moslashuvi.....	200

BESHINCHI SHOʻBA
MODERATOR – M. XOLIQOVA
PANDEMIYA SHAROITIDA OILAVIY NIZO VA ZIDDIYATLARNING
OLDINI OLISHDA MAHALLANING OʻRNI

M. XOLIQOVA. Oilaviy nizolarning samarali yechimi va prevensiyasiga doir zamonaviy kompetensiyalar (mediativ aspekt).....	204
---	-----